

**O'ZBEK TILINI XORIJIY TIL SIFATIDA O'QITISHNING
MUAMMO VA YECHIMLARI**

Yuldashev Farxod Karimbayevich

*O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
Umumiy tilshunoslik kafedrasи o'qituvchisi*

Annotatsiya. Maqolada o'zbek tilini xorijiy til sifatida o'qitishning muammo va yechimlari va ta'lim sifatini oshirishdagi omillar xususida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: metod, xalqaro ta'lim standartlari, innovatsion metod, interaktiv usullar, guruhlarda ishslash, innovatsion texnologiya, ijodkorlik

Annotation. The article deals with the problems and solutions of teaching Uzbek language as a foreign language factors of improving quality of education.

Key words: method, international educational standards, innovative method, interactive methods, working in groups, innovative technology, creativity.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-sон Farmonida xorijiliklar uchun o'zbek tilini o'rgatuvchi dasturlar yaratish, davlat tilining xalqaro miqyosidagi o'rni va nufuzini oshirish, bu borada xorijiy hamkorlik aloqalarini rivojlantirish va xorijiy oliv ta'lim muassasalarida o'zbek tili kurslarini zarur ilmiy, o'quv-uslubiy, badiy adabiyotlar bilan ta'minlash, o'zbek tilini o'rgatishga doir ilmiy tadqiqotlar miqdorini oshirish kabi bir qancha vazifalar belgilangan edi. [Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni, 20.10.2020-yildagi PF-6084-sон.]

Hozirgi kunda xorijiy davlatlarda o'zbek tilini o'ganishga bo'lgan qiziqish borgan sayin ortib bormoqda. Janubiy Koreya, AQSH, Germaniya, Chexiya, Yaponiya, Turkiya kabi davlat fuqarolari katta qiziqish bilan o'zbek tilini o'rganishayotganlari tajribalarda ko'rish mumkin. Bu jarayonni yanada rivojlantirish, xalqaro miqyosida o'zbek tili nufuzini oshirish va uni o'rganishga bo'lgan qiziqishlarni rivojlantirishda, bu jarayonni samarali tashkil etishga bo'lgan tadqiqotlar ko'lамини oshirish zarur bo'ladi. [Xalqaro onlayn ilmiy-amaliy anjuman materiallari. 2021-yil 29-may.]

Bugungi kunda o'zbek tilini xorijiy til sifatida o'rgatishda ularni avval mavjud bo'lganidek pedagogikaning ancha eskirib qolgan dasturlariga asoslanib o'qitish emas, balki jahoning yetakchi davlatlari tajribalariga tayangan holda o'qitish, ta'lim jarayonida rivojlangan, samarali usullar, yangicha dasturlar, innovatsion metodlardan foydalangan holda o'zbek tilini xorijda o'zbek tili sifatida o'qitish sifatini yaxshilash va uning samarasi o'larоq mamlakatimizni rivojlantirishda o'z hissasini qo'sha

oladigan, malakali kadrlarni, kasbining yetuk mutaxassislarini yetishtirish ta’lim dasturining asosiy mazmuniga aylandi.

O’zbek tilini o’qitishda interfaol ta’lim modelidan foydalanib tashkillashtirishi quyidagi xulosalarning asosli ekanini tasdiqlaydi:

1. Agar o’qituvchi talabalarga ma’lum mavzu materiallarini o’zlashtirishga o’z shaxsiy tajribalari asosida yondashishga imkon berilsa, talab etiluvchi bilim, ko’nikma va malakalar kerakli darajada o’zlashtiriladi;
2. Agar o’qituvchi talabalarning ta’lim olish vositalarini faol qo’llab-quvvatlay olsa, ular juda yaxshi ta’lim oladilar.
3. Agar o’quvchi, birinchidan, talabalarning imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda bilimlarni o’zlashtirishining samarali vositalarini tanlay olsa, ikkinchidan, ularning fikri garchi o’zining qarashlariga to‘g’ri kelmasa-da, ularni inobatga olsa, talabalar o’quv predmetlarni juda yaxshi o’zlashtiradilar.

O’zbek tilini xorijliklarga o’qitish jarayonida interfaol jarayonning mavjud bo’lishi o’qituvchining “hukmronligi”ni inkor etibgina qolmay, talaba uchun o’z bilimlari darajasini baholash, yutuq va kamchiliklarni aniqlashga ham imkon beradi. Interfaol jarayonning yana bir afzalligi-bu:

- talabalarda shaxsiy fikr-mulohazalarni bildirish;
- o’z qarashlarini himoya qilish;
- o’zgalarning fikrlarini tinglay olish, ularni umumlashtirish, bildirilayotgan fikrlar orasidan asosiy, muhim va haqiqatga yaqinlarini ajratish hamda xulosalash qobiliyatini ham rivojlantirish;
- interfaol metodlardan ta’lim jarayonida to‘g’ri va samarali foydalanish ko’nikma va malakalarini oshirishdir. [To’xliyev B., Shamsiyeva M., Ziyodova T., 2010:184]

Buning natijasi o’laroq, ta’lim-tarbiya jarayoniga mohirona, san’atkorona yondashib, ehtiyojiga moslab tashkillashtirish komil insonni tarbiyalab voyaga yetkazishning muhim shartlaridan biridir.

Interfaol usullar ta’lim jarayonida qatnashayotgan har bir xorijlik o’quvchining faolligiga, erkin va mustaqil fikr yuritishiga asoslanadi. Bunday usullardan foydalangan holda bilim olish o’quvchi uchun qiziqarli mashg’ulotga aylanadi. O’zbek tilini xorijda o’zbek tili sifatida o’qitishda asosiy e’tibor kommunikatsiyalarni rivojlantirish, muloqot qilish, aloqa jarayonida tilni o’zlashtirishga qaratish kerak.

Bunda xorijlik o’quvchilarda o’zbek tiliga qiziqish qobiliyatini uyg’otish, nutqni, fikrlashni, rag’batlantiradigan vaziyatni yaratish va talaba istagan mavzu bo’yicha gapirish, munozarada ishtirok etishi, tafsilotlarni aniqlashga yordam beradi.

O'zbek tilining xorijda o'zbek tili sifatida o'qitishda rolli o'yinlardan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Rolli o'yinlar talabalarda nutqni rag'batlantirishda faollik oshadi, chunki talabalar o'zlarini shu vaziyatda bo'lganda biron bir narsani aytishi, so'rashi, mavzu haqida bilim olishi bilan birga suhbatdosh bilan nimanidir baham ko'rish imkoniyati paydo bo'ladi. Xorijlik talabalarga o'zbek tilini o'qitishda multimedia, slayd-shou, audio-video materiallardan foydalanish va talabalarni mikroguruhlarga bo'lib ishslash, hamda guruhlarda eshittirilgan audio-materialni muhokama qilish ham til o'rganuvchilarda o'zbek tiliga bo'lgan qiziqishini yanada oshiradi. Darslarda o'qitishning har xil usullarini qo'llash talabalarda fanga bo'lgan qiziqish ortadi va ularning faolligi ortadi va natijada o'zlashtirish darajasi oshadi. [Muxitdinova X. Xorijliklarga o'zbek tilini o'rgatish dasturi. Ilmiy-amaliy anjumani mteriallari. Toshkent, 2018]

Yana shuni ta'kidlash joizki, ayni paytda yaratilayotgan darsliklarda o`z davri uchun muhim bo`lgan yana bir qancha qulayliklar mavjudki, ular ham til o`rganuvchida til o`rganish ko`nikmasini faollashtiradi. Yangi yaratilayotgan darsliklardagi bu kabi o`zgarishlar, takomillashuvlar ta`lim oluvchilarni darsdan bezib qolmaslikka, dars jarayoniga qiziqishi va o'zbek tiliga hurmat e'tiborini shakllantirishga hizmat qiladi.

Albatta, bugungi kunda O'zbek tilini chet tili sifatida o'qitish ko'zda tutilgan yangi darsliklar til o'qitishning xalqaro standartlari asosida yaratilmoqda.

Bunda:

Nutqiy kompetensiyalar:

Aktiv – gapirish, yozish;

Passiv – o`qib tushunish, tinglab tushunish.

Leksik kompetensiyalar:

Grammatika;

Leksika – A1, A2, B1, B2 ko`rinishidagi sinflar kesimida taqsimlangan.

Til ta`limi juda murakkab jarayondir. Shu ma`noda til o`qituvchilar turli tomonidan turlicha yondashib maksimal darajadagi natijaga erishishni, qanday qilib bo`lmisin milliy tilimizni jahonga yoyishda muayyan darajada hissa qo'shishni o`ziga maqsad qilib qo`ymog'i lozim.

Xulosa qilib shuni ta'kidlash mumkinki, o'zbek tilini xorijda o'zbek tili sifatida o'qitish jarayonida innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanish o'qituvchining ko'p qirrali va rang-barang faoliyatini kompyuter zimmasiga yuklash emas, balki o'quv jarayonini jadallashtirish, bilim olish amaliyotini faollashtirish,

talabalarda o’zbek tiliga bo’lgan qiziqishlarini kuchaytirish va xalqaro ta’lim tajribasini o’rganish va shu yo’l bilan ta’lim samaradorligini oshirishdan iborat.

Dars jarayonida innovatsion texnologiyalarni qo’llash o‘quvchi-talabalarda ilmiy izlanishga qiziqishni uyg‘otadi, ijodkorlik qobiliyatini rivojlantiradi.

O’zbek tilini xorijda o’zbek tili sifatida o’qitishni samarali tashkil etishda o’ziga xos yondashuvlar, metodlar va usullardan foydalanish zarur.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Mamlakatimizda o’zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni, 20.10.2020-yildagi PF-6084-son.
2. Ashurova D., Yuldashev Z. “Ta’lim tizimida innovatsion axborot texnologiyalarini qo’llash – zamon talablari”. Xalq ta’limi. – Toshkent: 2006.- №1. – B.16-17
3. Madaminov S.Q. “Chet tillarni o’qitishda innovatsion metodlarning o’rni va ularning uslubiy tahlili”. Samarcand: 2018.
4. Muslimova N.A., Usmonboyeva M.H., Turaev A.B. “Innovatsion ta’lim texnologiyalari”. “Sano standart” nashriyoti, g – Toshkent: 2015. – 180-bet.
5. Raximov O.D., Turg‘unov O.M. “Zamonaviy ta’lim texnologiyalari”. – Toshkent: 2012. 20-bet.
6. www.ares.uz.